

ISMOIL GASPRINSKIY — JADIDCHILIK HARAKATINING ASOSCHISI SIFATIDA!

*Ulug'bek SHAROBIDDINOV,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti talabasi*

ANNOTATSIYA: XIX asr oxiri — XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida maydonga chiqqan jadidchilikning haqli ravishda asoschisi deya e'tirof etiladigan Ismoil GASPRINSKIY to'g'risida so'z yuritilgan. Uning faoliyati, hayot yo'li muallif tomonidan tadqiq etilgan!

KALIT SO'ZLAR: Ismoil Gasprinskiy, Otasi Mustafobey, "Tarjumon" gazetasi, "Jaridai Askariya"dagi faoliyati, Toshkentga tashrifi,

ANNOTATION: Ismail GASPRINSKY, who is recognized as the rightful founder of Jadidism, which emerged as a socio-political movement in the late 19th and early 20th centuries, is discussed. His activity and life path are subjected to a more in-depth analysis!

KEY WORDS: Ismail Gasprinsky, Mustafobey, "Tarjumon" newspaper, visit to Bukhara and Tashkent,

Jadidchilik — XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda ko'chdi. "Jadid" arabcha so'zlardan sanalib, "yangi" degan ma'noni anglatadi. Harakat asoschisi qrim-tatar millatiga mansub Ismoil Gaspirali bo'lgan!

Ismoilbey oiladagi ikkinchi o'g'il bo'lib, 1851-yilning 21-martida Ovchiko'y qishlog'ida tug'ildi. U to'rt yoshga to'lganida oilasi Bog'chasarov shahriga ko'chib o'tadi va u yerda joylashib qoladi. Yosh Ismoil ilk savodini Bog'chasaroyda, Zinjirli madrasasida Hoji Ismoil degan muallim qo'lida chiqaradi. Uning bu tahsili 10 yoshga to'lganiga qadar davom etadi. Ismoil Gasprinskiyning otasi Mustafо 1810-yilda Qrimning Gaspra qishlog'ida dunyoga kelgan. Ismoilbey o'ziga otasining tug'ilgan joyiga nisbat berib Gasprinskiy deb taxallus olgani ham shundan. Shu o'rinda uning nima uchun Gasprinskiy deb taxallus organiga biroz to'xtalib o'tish lozim! O'z vaqtida uning muxlis va izdoshlarini ham shu savol bezovta qilgan edi. Ismoilbey bu savolga "Tarjimon" gazetasiga kelgan maktubga javobida aniqlik kiritib o'tadi. Xususan, maktubda shunday deyilgan edi: "Mashhur bir boyning uyida bo'lgan ziyofatda 'Tarjimon' gazetasi haqida ancha gaplar bo'ldi. Shu o'rinda muharirning ismi Ismoil bo'lsa ham familyiasi nima uchun Gasprinskiy ekan, degan savollar bo'ldi. Ziyofat davomida turli javoblar aytilgan bo'lsa hamki, bu masalaga oydinlik kiritilmadi!"

Javobini muharrirdan eshitishga qaror qilindi”. Gasprinskiy maktubdagi savolga shunday javob beradi: “Qrimda Gaspra nomida bir qishloq bor, muharrirning otasi mana shu qishloqdan. Shuning uchun ham qrimcha Gasprali, sibircha Gaspringiy, sartcha Gaspralik, arabcha al-G‘asfriy, ruscha yo Gasprov, yo Gasprinskiy deyilsa joiz. Masalaning javobi mana shu”. Hozirgi tadqiqotlarda ham uning ismi turlicha — Turkiya va Qrimda Gasprali, Amerika, Yevropada va xususan bizda ham Gasprinskiy nomi qo‘llanilib kelinmoqda. Gasprinskiyning bobosi Ali Gaspra qishlog‘ining ulug‘laridan bo‘lgan. Shu sababli ham Kavkaz general-gubernatori knyaz Voronsov-Dashkov bilan munosabati ancha iliq bo‘lgan. Shundan bo‘lsa kerak knyaz Voronsov Alining o‘g‘li Mustafoni o‘z himoyasiga olib Odessadagi litseyga o‘qishga joylashishiga ko‘mak beradi. Mustafo o‘qishini tamomlagandan so‘ng knyaz Voronsov devonxonasida tarjimon bo‘lib ishlay boshlaydi!

Keyinchalik uning qilgan xizmatlari inobatga olinib, unga dvoryan martabasi beriladi. Ammo u dvoryan bo‘lishiga qaramay moddiy jihatdan ancha qashshoqlashib qolgan va nochorlikdan qo‘lidagi bor yerlarning anchasi qarzlardan qutulishga ketadi. Mustafobey ikki marta uylanadi. Birinchi turmush o‘rtog‘i 1849-yili vafot etadi va shu yili u Qrimning mashhur Qaytazovlar oilasiga mansub Fatma xonimga uylanadi. Mustafoning bu oilasidan ikki o‘g‘li va to‘rt qizi dunyoga keladi¹.

Ismoil GASPRINSKIY (1851-1914) Rusiya jadidchilik harakati rahnamosi edi. Turkistonda XIX asrning oxirlaridan ko‘zga tashlangan yangilanish harakatlari ko‘p jihat bilan shu nomga, uning “Tarjimon” gazetasiga kelib bog‘lanadi. Va ushbu davrdan e’tiboran XX asrning 20- yillariga qadar faoliyat ko‘rsatgan biror turkistonlik ziyoli yo‘qli, bu nomni chetlab o‘tgan bo‘lsin. Shu sababli, uning ijodiy faoliyati va ayniqsa, maslak-intilishlari bilan tanishish Turkiston jadidchiligi va jadid adabiyotining shakllanish hamda rivojlanish bosqichlarinigina emas, umuman mazmun-mohiyatini anglashda, yo‘nalishlarini belgilashda ham benihoya muhim ahamiyatga ega. Uni Qashqardan Londongacha, Sankt-Peterburgdan Bombeygacha bilar edilar. U chiqargan “Tarjimon” gazetasining 1908-yildagi 25 yillik to‘yida Xitoyning “Tarancha”sidan tabrik telegrammasi kelgan. 1910-yilda esa Fransiyaning eng e’tiborli jurnallaridan “REVVU DYU MONDE MUSULMAN” millat oldidagi buyuk xizmatlari uchun uning nomzodini “Tinchlik borasidagi Xalqaro Nobel Mukofoti”ga tavsiya qilgan va buni xorijiy mamlakatlardagi juda ko‘p matbuot organlari qo‘llab- quvvatlab chiqqandi. U vafot etgan 1914 yilning 11 sentyabrida mashhur Narimon Narimonov yozadi: «Millat Ismoilbek kabi qahramonlarini unutsa, o‘z hayotini barbod etajaqdir». Bu balandparvoz gap emas. Dalil — tarix. U tirikligidayoq millatning otasi, rahnamosi degan nom oldi. Uning eng katta xizmati Rusiya sarhadida yashab turgan, lekin zamonning zayli bilan bir-biridan uzoq tushgan (to‘g‘ri-rog‘i, uzoqlashtirilgan) va begonalashish darajasiga yetgan turkiy xalqlarni bir-

biriga tanitdi. Behbudiy so‘zlari bilan aytganda, “Rusiyadagi butun turk-tatar xalqlarini juda oz tarixiy muddatda xayr-xo‘shlik yo‘li bilan yaxlit bir milliy oilaga birlashtirmoqqa noil bo‘ldi”. Bu dard o‘sha davr chor Rusiyasi asoratida o‘z erku huquqigina emas, asriy urf-udum, ma’naviy qadriyatlaridan tortib, til va din-e’tiqodigacha unutishga mahkum qilingan turkiy xalqlarning eng katta dardi, so‘ngsiz armoni edi.

Ismoilbek Sharq xalqlari ma’naviy hayotida, xususan, maktab-maorifida chinakam inqilob yasagan, “usuli jadid” nomi bilan tarixga kirgan “usuli savtiya”ni boshlab berdi. XX asr Sharqining eng mashhur, eng taraqqiyatli harakatchiligidagi — jadidchilikka asos soldi. Barcha turkiy xalqlarni yaxlit, yagona millat deb bildi. Ularni ham ilm-ma’rifatda, haq-huquqda dunyoning taraqqiy qilgan millatlari bilan teng, baqamti ko‘rmoqni orzu qildi.²

Shu o‘rinda Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Oyina” jurnalining 1914-yil 49-sonida bosilgan “Ismoilbek hazratlari ila suhbat” maqolasini eslash o‘rinli hisoblanadi: 20-iyun, asr vaqt edi. Marg‘ilonlik bir mudarris janoblari ila Istanbulning “Gulxona parki”ning soyador yo‘lakinda yurar eduk. Oldimizda, tatarcha barra qorako‘li telpaklik bir tatar ila faslik bir turk ohistalik ila ketarlar edi. Biz tez yurub o‘tduk. Ikkisi-da oshnodek ko‘rundi. Bir qo‘lumi ko‘ksumg‘a qo‘yub salom ishorati berib o‘tdum. Ko‘nglumg‘a keldiki, bu tatar Ismoilbekg‘a o‘xshaydur.

² <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/yunesko-2014-yilni-ismoil-gaspirali-xotirasi-yili-deb-elon-qildi.html>

Balki anga o‘xhash bir kishidur. Faslik turk bo‘lsa muharrir Hamdulloh Subhibek janoblari edi. Hanuz o‘n qadam ketmab eduk, “Oy, Xoja!”, deb orqamdan oshno bir sado eshittim. Qalbim urub mazkur zotni Ismoilbek hazratlari ekanligig‘a shubham qolmadi. Qaytib musofaha etdik. Hamdulloh Subhibek huviyyatimizni bayon qilib ekan. Muloqot asnosinda derdilar: “Na uchun bu qadar tez qo‘chalanmoq?”, ya’ni na uchun buncha tez mo‘ysafid bo‘lmoq. Man ham bilaixtiyor: “Afandim na uchun bu qadar oriqlamoq?” Ustod hazratlari buyurdilar: “Na chora, hepimiz bo‘yla”... Ertag‘a Shom va Misrg‘a azimat etishimni arz etdim. Unday bo‘lsa, suhbat etayluk, dedilar. Tashakkur aytdim. Hamdulloh Subhibek afandina javob berdilar. Man ham mudarris afandidan ayrildim. Parkdan chiqib arabag‘a minib, ustod hazratlarining manzili “Shohin posho o‘teli”g‘a kelduk. Taom buyurdilar. Ammo ishtahalari yo‘q. Sadolari xasta, va har 3-4 daqiqada hafifgina yo‘talib balg‘am tashlaydurlar. Hujrada manga Rusiyadan, Turkistondan, umum olami islomdan, dunyodan so‘ylaydurlar. Musulmonlarni kundan kun taraqqiy etishini so‘ylab xursand bo‘lurlar. Yana derlarki: “Mahmudxo‘ja, endi siz so‘ylang, boqalim”. Samarqand, Buxoro, Toshkand, Xiva, Farg‘ona xulosa har biridan so‘ylayman. “Allohga shukr, hukumat maktablarina-da turkistonli qardoshlar bola bermoqg‘a boshlamishlar. Bukun

2 jarida va bir majallangiz vor. Maktablariningiz-da bir oz taraqqiyda, albatta mustaid taraqqiy. Siz hukumat maktablarina-da ziyodaroq bola beringiz, rus madaniyatidan qochmangiz.... Oh, bilmam shu Buxoro na o‘lur?” derlar.

Man derman: “Afandim, Buxoroni hukumatimiz, ya’ni Rusiya tarbiyat etmaguncha Buxorodan bir shay umid etib bo‘lmash”. Chunon-chi.... ustod derlar: “Avat, oxiri sho‘yla o‘lmog‘i lozim kelur”. Yana so‘z boshqa tarafa ketar. Man bir necha daf'a talabi ruxsat etdim. Balki zotingiz istirohat etarsiz. Ustod hazratlari der: “Xoja afandi, siz burada bo‘linsangiz banim rohatim ziyoda o‘lur. Agarda ketsangiz maktub yozmoqg‘a tutunarman”.

Ustod hazratlari fevral oyinda Petro‘g‘radg‘a borib, musulmon fraksiyasini Muhammad Fotih afandi va boshqalar ila em “shirping‘a ” etib kelganda ittifoqan sovuq olib, ondin beri noxush bo‘lib ekanlarki, Petro‘g‘raddagi majlis mashvaratg‘a xastalikdan borolmaganlari uchun nihoyatda taassuf etarlar edi. Agar-da Istanbul havosi yoqsa, bir necha muddat turmoqchi edilar. Oldimizdagি qishni Alloh qo‘ysa, – Misr al-Qohirag‘a – o‘tkarib, onda ham ba’zi ishlar ishlarishlamoqchi edilar. Qaytishda mani Bog‘chasaroyda da’vat va Qrimni aftomobil ila birga yurub, manga ko‘rsatmoqni va’da etdilar. Men ham qaytishda Bog‘chasaroyg‘a kirmoqni va’da berdim. Ammo bu manhus muhoraba mone bo‘ldi. Muhtaram ustoz oriqlagan, yo‘tal va balg‘am har zamon mashg‘ul qilar. Har zamon ruxsat xohlayman, javob bermaydurlar. Izn so‘rab krovat-qaryulag‘a cho‘zulub soatlar ilan so‘zlaydurlar. Bir zamon qarasak yarim oqshomdan bir soat o‘tubdur. Ya’ni tom 7 soat suhbat etibmiz. Zo‘rg‘a javob berib zina boshig‘acha uzatib, qaytishg‘a Bog‘chasaroyg‘a kirishimg‘a qayta-qayta so‘z oldilar”.³

O‘zbek jadid adabiyotining darg‘alari, xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiydek yetakchi ziylilar ham uni o‘zlariga ma’naviy padar, yo‘lboshchi va maslakdosh sanaganlari beziz emas. Ayniqsa, Gasprinskiy vafoti munosabiti bilan dunyoning turli burchaklaridan afsus-nadomat, yig‘i-yo‘qlov tovushlari eshitildi, ayni damda taqdirga tan berildi. Marhumning yaqinlariga – Boqchasaroya musulmonlarga xos yuksak odob bilan ta’ziya izhor qilingan, sabri jamil tilangan maktublar, teleogrammalar, xabarlar tinimsiz borib turgani – bularning barchasi tarixiy haqiqat, albatta.

O‘sha davrda dunyoning ko‘plab gazeta va jurnallarida, xususan, tatar matbuotida bosilgan maqolalarning son-sanog‘iga yetib bo‘lmaydi. Bu gapda mubolag‘a yo‘q. Chunki birgina o‘zbek matbuotida Gasprin-skiyga bag‘ishlab 1914 yilning sentyabridan noyabrigacha bo‘lgan, bor-yo‘g‘i ikki oy davomida o‘nlab asarlar e’lon qilindi. Bu adabiy, ilmiy, ijtimoiy ruhdagi manbalarni “Marsiya-she’rlar”, “Publitsistik maqolalar va xabarlar” tarzida shartli ravishda tasniflash mumkin. Qo‘limizda jamlangan manbalar shunga asos beradi.

Endi bevosita to‘plangan manbalar tafsili va tahliliga keladigan bo‘lsak, gap avvalidayoq aytish lozimki, ularning umumpafosida bir-biriga uyg‘unlik, ma’nomundarijasi va umummohiyatida yaqinlik mavjud. Bu umumiyat negizi achinish va

iftixor, afsuslanish va orzu-umid kabi ikki qirrali his-tuyg‘ulardan iborat. Shu bilan birga, dunyodagi biror tirik jon qochib qutula bilmaydigan, bandasining boshiga qachon kelishi noma'lum o'limdek sirli hodisa Gasprinskiy fenomenini atroflicha idrok etish uchun ham g‘animat bir fursat bo‘lgandek taassurot qoldiradi. Chunki yer uchun langar o‘laroq yaratilgan tog‘lar mahobati, haybati, ulug‘vorligi undan uzoqlashgan sari ko‘rinadi, anglanadi, his qilinadi, idrok etiladi. Zamondoshlari, maslakdoshlari Ismoilbek Gasprinskiy vafot etgan mahalining o‘zidayoq bu shaxsiyat millat uchun chinakam bir porlagan mayoq bo‘lganini tan olishdi, e’tirof etishdi.

³ Mahmudxo‘ja Behbudiy: “Ismoilbek hazratlari ila suhbat” — “Oyina” jurnali 1914-yil 49-son

Oradan vaqt o‘tgan sari esa bu ulkan shaxs bayon qilgan o‘gitlar, hikmatlar, hayot uchun dasturga munosib qarashlar o‘z isbotini topdi; o‘zidan keyingilarga milliy o‘zlikni anglash borasida muhtasham fikr maydoni bo‘lib xizmat qildi. Mahobatga haqiqat va haybat qo‘sildi.⁴

⁴ <https://kh-davron.uz/kutubxona/jadidlar-kutubxona/ismoil-gasrinskiy-hayot-va-mamot-masalasi-gasrinskiy-haqida-ikki-maqola.html>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://daryo.uz/2021/03/21/ismoil-gasprinskiy-jadidchilik-harakatining-asoschisi>
2. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/yunesko-2014-yilni-ismoil-gaspirali-xotirasi-yili-deb-elon-qildi.html>
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy: “Ismoilbek hazratlari ila suhbat” — “Oyina” jurnali 1914-yil 49-son
4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jadidlar-kutubxona/ismoil-gasrinskiy-hayot-va-mamot-masalasi-gasrinskiy-haqida-ikki-maqola.html>